O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor ____________ A.Sattorov
2024-yil "30" ____________

Ro'yxatga olindi: № ______
2024-yil "" __________

# ARXEOLOGIYA
**fanining**
# O'QUV DASTURI
**(Tarix kunduzgi ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun)**

Gumanitar fanlar

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 220000 – Gumanitar fa
Ta'lim yo'nalishi: 60220300-Tarix

**Termiz – 2024**

CamScanner yordamida skanerlangan

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| MO'MM20014 | 2024/2025 | 2 | 5 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | O'zbek | | 4 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Arxeologiya | | 60 | 90 | 150 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** -"Arxeologiya" fanining mazkur dasturi davlat standartlari bo'yicha bakalavriat darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashni, ularga Arxeologiya fanida arxeologik yodgorliklarni turlari, arxeologik manbalar, madaniy qatlam va stratigrafiya, geologik va tabiiy geografik sharoitda arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, arxeologik yodgorliklarni qidirib topish, arxeologiya va tarix, dala hujjatlari va ularni yuritish to'g'risida bilimlar berishni maqsad qilib qo'yadi. Arxeologiyani o'rganish shuning uchun kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g'oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi.

**Fanning vazifasi-** talabalarni kelajakda voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilishga ko'maklashish; etuk mutaxassislar bo'lib etishishlarida yordamlashish; o'zi yashayotgan va atrofdagi hududlar tarixini bilishga qiziqtirish; bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish, shu maqsadda arxeologiya ilmni keng o'rgatish; yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash; yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash; yoshlarni Vatan va xalq, millat, farzand, ota-ona, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarini chuqur his etish va ularga sadoqat ruhida tarbiyalash. Fanni o'rganishda tarixiy manba va adabiyotlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari, statistik ma'lumotlardan, shuningdek, mushohada, tahlil, kuzatish usullaridan keng foydalaniladi.

## I. ASOSIY NAZARIY QISM(ma'ruza mashg'ulotlari)

### I.I. Fan tarkibigaquyidagimavzularkiradi:

**1 –mavzu. Arxeologiyafanning predmeti, maqsadi va vazifalari.**

Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiyaning ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rni. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish tarixi. Arxeologik manbalar va ularning madaniy-tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati. Arxeologik tadqiqot usullari. Madaniy qatlam. Xronologiya va davrlashtirish. Arxeologiya fanining yordamchi tarmoqlari.

**2 –mavzu. Paleolit davri moddiy madaniyati.**

Paleolit davri va uning bosqichlari: olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit. Insoniyat shakllangan hudud. Paleolit davri madaniyatlari bosqichlari. Afrika, Osiyo, Yevropaning paleolit davriga oid asosiy yodgorliklari tavsifi. O'rta Osiyoning paleolit davri tavsifi. Asosiy arxeologik yodgorliklari. Insoniyatning Amerika mintaqasiga tarqalishi. Paleolit davri moddiy madaniyati. Mehnat qurollari. Tosh qurollariga ishlov berish texnikasi. O'zlashtiruvchi xo'jalik xususiyatlari (ovchilik va termachilik) Ibtidoiy tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar. Sun'iy turar joylarning paydo bo'lishi.

**3 –mavzu. Mezolit davri xo'jaligi va moddiy madaniyati.**

Mezolit davri tavsifi Tabiiy o'zgarishlar va ekologiyaning o'rni. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Mezolit davri lokal madaniyatlarining shakllanishi. Old Osiyoning mezolit davri xususiyatlari Nutufiy madaniyati. Shimoliy Hindistonning mezolit davri xususiyatlari.. O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatlari: Sharqiy Kaspiybo'yi, Qo'shilish, Obishir, Machay va boshqalar. Lokal madaniyatlarning xo'jalik va moddiy madaniyati. Tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar.

**4 –mavzu. Neolit davri madaniyatlari xususiyatlari.**

Neolit davri tavsifi. Neolit inqilobi. Yevrosiyoning janubiy viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining qaror topishi. Yaqin Sharqda ilk dehqonchilik. Ierixon madaniyati. Kichik Osiyo markazlari: Cheyunyu tepesi va Chatal Xyuyuk. Kulolchilikning paydo bo'lishi. Jarmo madaniyati va Zagros madaniy birligi. Misdan buyumlar tayyorlash. Tosh qurollar. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi Jebel va Jaytun madaniyatlari. Ilk dehqonchilik manzilgohlari va

CamScanner yordamida skanerlangan

qurilish. Tosh qurollar. Hunarmandchilik. Tasviriy san'at, haykalchalar. O'rta Osiyoning neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatlari tavsifi (Kaltaminor va Hisor). Neolit davri ijtimoiy munosabatlari.. Yevrosiyo dashtlaridagi neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi qabilalar madaniyatlari tavsifi. Ixtisoslashgan ovchilik, termachilik va baliqchilik. Moddiy madaniyat. Shimoliy Belujistonda ilk dehqonchilik madaniyati (Mergar). Hind vodiysining qadimgi dehqonlar tomonidan o'zlashtirilishi. Xitoyning neolit davri Yanshao va Lyushan madaniyatlari tavsifi.

**5–mavzu. Eneolit davri tarixiy-madaniy jarayonlari.**

Eneolit davri tavsifi. Dastlabki metall - misga ishlov berishning boshlanishi insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti burilishidagi omil sifatida. Mesopotamiyada shahar-davlatlarning shakllanishi. Eron eneolit davrida (Sialk va Suza kompleksi) Afg'oniston eneolit davrida (Mundigak). O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Manzilgohlar, qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti (kulolchilik va metall). Haykalchalar. Kavkaz ortining eneolit davri madaniyatlari Karpatoldi (Moldova, Ruminiya va G'arbiy Ukraina) hududida Tripole madaniyati va uning bosqichlari. Manzilgohlar va uy-joylar. Dehqonchilik va chorvachilik. Kulolchilik. TOsh qurollar. Metallarga ishlov berishning rivojlanishi. Tasviriy san'at G'oyaviy qarashlarning namoyon bo'lishi. Eneolit davri janubiy va shimoliy hududlari qabilalari madaniy-iqtisodiy taraqqiyotining notekisligi. Yevrosiyo dashtlarida Maykop, Drevneyamnaya va Afanasev madaniyatlari.

**6 –mavzu. Bronza davri jarayonlari va moddiy madaniyati.**

Bronza davri tavsifi. Bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Mesopotamiyada shahar davlatlar taraqqiyoti vaularning xususiyati. Kritdagi mil. av. III-IIming yilliklarga oid Minoy va Miken madaniyatlari Eron bronza davrida. Asosiy arxeologik yodgorliklari (Sialka IV kompleksi Tepai Hisor, Shahri Soxta) va ularning tavsifi. O'rta Osiyoning bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy markazlari (Kopetdog' oldi, Murg'ob, Surxon va O'rta Zarafshon vohalari) protoshahar tipidagi manzilgohlari (Oltindepa, Sarazm, Janubiy Gonur, To'g'aloq, Sopollitepa, Jarqo'ton). Shimoliy Afg'onistonda Dashli madaniyati. Hindiston bronza davrida (Moxenjadaro va Xarappa madaniyatlari). Sho'rto'g'ay. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish. Tasviriy san'at. Yozuv yodgorliklari. Yevrosiyo dashtlarida Kotakomba, Yog'ochband, Andronova va Karasuk madaniyatlari. Bronza davrida Uralbo'yi hududlarida sivilizatsiyaning shakllanishi Arkaim manzilgohi va Sintashta mozori.

Xo'jalik va moddiy madaniyat. Metallarga ishlov berish taraqqiyoti. Ijtimoiy tabaqalanish va davlatchilik masalalari.

**7 –mavzu.Temir davri xususiyatlari.**

Ilk temir davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Etno-madaniy migratsiyalar. Eron, Kavkazorti va O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davlatlarning shakllanishi. Shaharlar. O'rta Osiyoning temir davri tavsifi O'troq dehqonchilik markazlari va ularning xususiyatlari. qadimgi shahar shaklidagi manzilgohlar (Yozdepa, Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Dalvarzintepa, Ko'zaliqir, Gyaurqal'a va boshqalar) Qurilish va me'morchilik. Mil. av.Iming yillikning birinchi yarmiga oid Skiflar madaniyati. Kamensk shahar xarobasi. Qozoqistonda Tosmoli madaniyati. Orolbo'yi saklarining moddiy madaniyati.

**8 –mavzu. Antik davri madaniyati va san'ati.**

Antik davri ijtimoiy-siyosiy munosabatlari. O'rta Osiyoning antik davri davlatlari. Madaniy-tarixiy viloyatlarning yirik shahar markazlari. Dalvarzintepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Gyaurqal'a, Niso, Tuproqqal'a, Qozoqliyotgan, va boshqalar). Sirdaryo havzasi o'troq dehqonlari va chorvador qabilalari, Kanka va O'tror. Sharq ellinizmi va shaharsozlik, me'morchilik va moddiy madaniyatda namoyon bo'lishi. Chirikrabot va Babushmulla madaniyatlari. Antik davrida Farg'ona.. Qurilish va me'morchilik. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish (kulolchilik, metallar ishlab chiqarishi, to'qimachilik, zargarlik) San'at (haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir). Torevtika. Antik davri madaniyati ahamiyati.

**9 –mavzu. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar moddiy madaniyati.**

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari Yer egaligi munosabatlarining qaror topishi. Yirik feodal davlatlari (Hazar va Turk hoqonliklari) O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davrida.O'rta Osiyoda kichik feodal davlatlarning qaror topishi. Dehqonchilik markazlari.

**10 –mavzu.O'rta Osiyoning o'rta asrlar shaharsozlik xususiyatlari.**

Yirik shaharlar (Marv, Buxoro, Samarqand, Panjikent, va boshqalar) va manzilgohlar. Qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik turlari. (kulolchilik, metallarga ishlov berish, to'qimachilik, zargarlik). Haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir. Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar moddiy madaniyati xususiyatlari Qadimgi va o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati.

CamScanner yordamida skanerlangan

**III. Seminarmashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Arxeologiya faning maqsad va vazifalari
2. Paleolit davri moddiy madaniyati
3. Mezolit davri xo'jaligi va moddiy madaniyati
4. Neolit davri madaniyatlari xususiyatlari
5. Eneolit davri tarixiy-madaniy jarayonlari
6. Bronza davri jarayonlari va moddiy madaniyati
7. Temir davri xususiyatlari
8. Antik davri madaniyati va san'ati
9. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar moddiy madaniyati
10. O'rta Osiyoning o'rta asrlar shaharsozlik xususiyatlari

**IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Arxeologiya faning maqsad va vazifalari
2. Paleolit davri moddiy madaniyati
3. Mezolit davri xo'jaligi va moddiy madaniyati
4. Neolit davri madaniyatlari xususiyatlari
5. Eneolit davri tarixiy-madaniy jarayonlari
6. Bronza davri jarayonlari va moddiy madaniyati
7. Temir davri xususiyatlari
8. Antik davri madaniyati va san'ati
9. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar moddiy madaniyati
10. O'rta Osiyoning o'rta asrlar shaharsozlik xususiyatlari
11. Madaniy-tarixiy jarayonlarni o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati

**3. V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:**

- Qadimiy sivilizatsiyalarning rivojlanishi, eng qadimgi davrni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg'ulotlari, makonlari, uning qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi hamda shu davrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lishi; ***(bilim)***
- Talaba mustaqil ish, amaliy mashg'ulot va arxeologik yodgorliklarni tashqi ko'rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini bilishi va ulardan foydalana olish; (ko'nikma)
- Har bir davrning o'ziga xos yodgorliklari turini va ularning tabiiy geografik joylashish o'rinlarini, ulardan qanday qilib mavzuga xos tarixiy informatsiyalar olish va o'z pedagogic faoliyatida ulardan samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish kabi ***(malakaga) ega bo'lishi kerak***

**4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- Kutilmagan qiziqarli tarixiy xodisa (KAZUS) lar topib kelish.
- Berilgan manbalarni tarjima qilish.
- Internet ma'lumotlarinisaralash.
- Maqolalar yozish.
- Mustaqil ish yozish.
- Testlar tuzish.
- Topshiriqlar tuzish.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**6. Asosiy adabiyotlar**


**Asosiy adabiyotlar:**

1. Kabirov J., Sagdullaev A. Toshkent «O'qituvchi» 1990
2. Авдусин Д.А. Основы археологии М., «Высшая школа» 1989
3. Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. Самарканд: Изд.СамГУ. 1983. пдф.
4. Лунина С.Б. Археология Средней Азии.Учебное пособие. Ташкент. 1986. пдф.
5. Рындин аН., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. М. 2002.
6. Археология Зарубежной Азии. М., «Высшая школа» 1986
7. EgamberdievaN.A. Arxeologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2011.
8. Baqtriya-Toxariston buyuk ipak yo'lida. 2022
9. S.Tursunov.Termiz shaxar tarixi.2019

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

10. C.N.Tursunov. Imom Abu Iso At-Termiziy va Termiziy allomalar. 2021
11. Народы Мира. Серия. М. 1954- 1966.
12. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Т., 1997.
13. Беленискиия.М., Бентович И.Б., Болшаков О.Г. Средневековый город


CamScanner yordamida skanerlangan

<table>
<tr><td></td><td>Средней Азии. Л., 1973<br>14. Брей У., Трамп Д. Археологический словар М., «Прогресс» 1990<br>15. Древнейшие государства Кавказаи Средней Азии. М. «Высшая школа» 1985<br>16. Ламберг-Карловский, СабловДж. Древние цивилизатсии. Ближний Востоки Мезоамерика. М., «Наука» 1992<br>17. Массон В.М. Первая цивилизация М., «Высшая школа» 1985<br>18. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии М., «Наука» 1984<br>19. E.Qobulov.Sharqiy Buxoro tarixi. 2021<br>20. E.Qobulov.Surxondaryo tarixi. 2021<br>Elektronmanbalar<br>1. www.history.ru<br>2. www.natura.com<br>3. www.arxeologiya.ru<br>4. www.arxeologiya.com<br>5. https://study.anu.edu.au/all-programs-and-courses.<br>6. https://nus.edu.sg/about/departments.<br>7. https://www.columbia.edu/content/academics/departments.<br>8. https://www.ucla.edu/academics/programs-and-majors.<br>9. https://study.anu.edu.au/all-programs-and-courses.<br>10. https://cas.nyu.edu/core.html.<br>11. https://uceap.universityofcalifornia.edu/index.php/programs/national-taiwan-university/academics.<br>12. https://ic.ustc.edu.cn/en/v7info.php?Nav_x=4<br>13. https://www.kaznu.kz/en/3360/page/<br>14. https://u-paris.fr/choisir-sa-formation/</td></tr>
<tr><td>7.</td><td>O‘quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashning 2024-yil _____-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</td></tr>
<tr><td>8.</td><td>Fan/modul uchun mas’ullar:<br>Sh.Xudayberdiyev- Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi</td></tr>
<tr><td>9.</td><td>Taqrizchilar:<br>Xoliqov Z.E – Termiz davlat universiteti “Arxeologiya” kafedrasi .Tarix fanlari nomzodi. dotsent<br>T.R.Pardayev- Termiz davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasi. Tarix fanlari doktori, dotsent.</td></tr>
</table>

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:** **A.Esanov**

**Tarix kafedrasi mudiri:** **F. Yormatov**

CamScanner yordamida skanerlangan